

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
ISTANBUL TIJORAT UNIVERSITETI
QOZON FEDERAL UNIVERSITETI
BALIKESIR UNIVERSITETI**



**“SIFATLI TA’LIM VA INTERDISIPLINAR YONDASHUV:
MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA HAMKORLIK”**

xalqaro ilmiy amaliy anjuman

MATERIALLARI

25-26-may

GULISTON-2023

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirligi
Guliston davlat universiteti
Istanbul tijorat universiteti
Qozon federal universiteti
Balikesir universiteti

“Sifatli ta'lim va interdisiplinar yondashuv: muammolar, yechimlar va hamkorlik”

xalqaro ilmiy – amaliy anjuman

materiallari

25-26-may

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида. Илмий мухарири М.Жўраев. -Тошкент: . Шарқ, 2000. Б-589.
2. Ражабов Қ.К.Туркистон минтақасидаги истиқлолчилик ҳаракати тарихининг давраштириш муаммолари (1918-1935 йиллар).Ўзбекистон тарихи. –Тошкент: 2000. -Б 80-89.
3. Алимов И.А. Эски мактаб ислохоти ташаббускори // Халқ таълими. - Тошкент, 1993. № 10 - 12.
4. Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан. Нашрга тайёрловчи С.Холбоев. - Тошкент:, Шарқ, 2001 - Б 128.
5. Комилов О. Туркистон маориф тизимидаги ўзгаришлар. -Тошкент:, 2010. -Б 40.

**YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI ASOSIDA INSON HUQUQLARI
HIMOYASINI TAMINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O‘RNI
F.X.Nabiyev., Jomonqulov Bekzod Shokir o‘g‘li**

Sh.Rashidov nomidagi SamDU
tarix fanlari doktori, professor
Guliston davlat universiteti ijtimoiy-
iqtisodiy fakultet tarix yo‘nalishi tarix
kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya Yangilanayotgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson, jamiyat va davlat manfaatlarining muhim sharti ekanligini hisobga olgan holda avvalo inson qadr-qimmat, erkinligi, haq-huquqlarini jamiyat rivoji unga ijtimoiy tartib tamoyilning muhimligi va davlatimizning jahon miqyosida yuksak obro‘-e‘tibor qozonishi, yuksalishining huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar: Fuqarolik pozitsiyasi, huquqiy manbaa, siyosiy islohotlar, xalq konstitutsiyasi, inson manfaati, dunyoviy davlat, xususiy mulk, ijtimoiy davlat, huquqiy davlat, biologik hilmaxillik.

Annotation The Constitution of the Republic of Uzbekistan, which is being renewed, takes into account the cultivation of an important condition of the interests of Man, society and the state, first of all, the development of human dignity, freedom, rights of society serves as the legal basis for the importance of the principle of social order and the rise of our state to a.

Base words: Civil position, legal mabaa, political reform, people's Constitution, human interest, secular state, private property, Social state, legal state, biological prejudice.

O‘zbekiston tanlagan demokratik taraqqiyot yo‘li evolyutsion tarzda amalga oshirilmoqda, chunki demokratiyani joriy qilish odamlarning ongi va dunyoqarashining yuksalishi bilan bog‘liq. Odamlarning dunyoqarashini yuksaltirish esa ma’lum bir vaqtni taqozo etadigan evolyutsion jarayon hisoblanadi. Bugungi kunga qadar amalga oshirilgan siyosiy islohotlar mamlakatimizda demokratiyaning shaklini ta’minlab berdi, endigi vazifa ana shu shaklga munosib mazmunni yaratishdan iborat. Boshqacha qilib aytganda, demokratiyaning siyosiy va huquqiy asoslari yaratildi, endi ana shu asoslarga tayanib demokratiya sharoitida yashay oladigan siyosiy-huquqiy madaniyati yuksak avlodni shakllantirish lozim. Odamlar demokratiya sharoitida yashashlari uchun faqat siyosiy-huquqiy madaniyatning o‘zi yetarli emas, buning uchun ma’naviy yuksaklik ham lozimdir.

Chunki ma'naviyat insonda befarqlikni jilovlab, daxldorlik hissi bilan yashashni anglatadigan fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Fuqarolik pozitsiyasi demokratiyaning shakllanishini va, xuddi shunday, demokratiya fuqarolik pozitsiyasi shakllanishining muhim sharti hisoblanadi.¹⁸

Bugungi kunga qadar mamlakatimizda demokratiyani joriy qilishga xizmat qiladigan ko'plab qonunlar qabul qilingan. Bunday qonunlar ichida "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida"gi qonun alohida ahamiyatga ega. Chunki demokratiya namoyon bo'lishi uchun, eng avvalo, jamiyat davlat faoliyatidan xabardor bo'lishi lozim. Jamiyat demokratiyaga qanchalik tayyor ekanligini aniqlash zaruriyati mazkur qonun yuzasidan huquqiy eksperiment o'tkazishni keltirib chiqardi. Agar jamiyat demokratiyaga tayyor bo'lmasa, ochiqqlik to'g'risidagi qonun demokratiyaning oxlokratiyaga aylanib ketishini keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun davlat hokimiyati faoliyati ochiqqligini ta'minlashda shoshma-shosharlikka va ushbu jarayonni sun'iy ravishda tezlashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Umuman, mazkur qonun fuqarolarga axborot olish huquqini beryapti va ular axborot olish zaruriyati bo'lganda ushbu huquqdan foydalanishlari mumkin.¹⁹

Yangilanayotgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida so'z yuritar ekanmiz. Konstitutsiya eng avvalo nima ekanligi u qanday huquqiy kuchga egaligi va hozirgi globallashuv jarayonida amalga oshirilayotganiga to'xtalib o'tish zarur. Konstitutsiya bu jamiyat va davlatni o'zaro mutanosib holda insonning o'ziga va o'zgalarga, davlatga bo'lgan munosabatini hatti-harakatini o'zida jamlagan eng muhim huquqiy manbaa. Unda avvalo inson qadr-qimmati, haq-huquqi to'liq davlat tomonidan muhofaza etilishi va uning amalda taminlanishi tushuniladi.

Konstitutsiyaning dunyo bo'ylab yaratilishidan maqsad- inson huquqlarini amalga oshirish uchun kafolatlarni ta'minlash, insonni davlat, uning mansabdor shaxslarning huquqqa zid hatti-harakatlaridan himoya qilish hisoblangan. Shuning uchun ham 1789-yilgi Inson va fuqaro huquqlari bo'yicha fransuz deklaratsiyasining 16-moddasida, qaysiki jamiyatda inson huquqlari kafolatlari xususan, hokimiyatlar bo'linishi taminlanmagan ekan, bunday jamiyat Konstitutsiyaga ega bo'lmaydi deb mustahkamlangan edi.

Konstitutsiyani qonunlarning onasi deb ham aytishadi, ya'ni barcha qonunlar Konstitutsiyadan kelib chiqadi. Shuning uchun ham ba'zi turkiy davlatlarda Asosiy Qonunni «Onayaso» deb nomlashadi. Konstitutsiyaning boshqa hujjatlardan o'zining oliy yuridik kuchga egaligi, barcha darajadagi organlardan ustunligi, fuqaro, jamiyat va davlat oldiga maqsad qo'yishi bilan farq qiladi.²⁰

2022-yil 20-mayda Oliy majlis palatalari Kengashlari 47 nafar a'zodan iborat Konstitutsiyaviy komissiyani tashkil etdi. Komissiya a'zolarining deyarli barchasi parlament quyi palatasi a'zolari, siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari, mamlakatimizning hududlaridan saylangan senatorlar, shuningdek fuqarolik jamiyati instituti vakillari, olimlar, mutaxassislardan iborat bo'ldi. Konstitutsiyaviy komissiya bu safar yangicha yo'ldan borib, avval xalqimizning fikri, takliflari o'rganildi, shundan so'ng Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi.²¹

¹⁸ Nabiyeu F.X O'zbekistonda ijtimoiy nazorat tarixi dolzarb muammolari fanidan O'UM Samarqand.2022-y 132-b

¹⁹ Nabiyeu F.X O'zbekistonda ijtimoiy nazorat tarixi dolzarb muammolari fanidan O'UM Samarqand.2022-y 132-b

²⁰ Xalq so'zi gazetasining 2023 yil 31 mart №64 1-bet

²¹ Xalq so'zi gazetasining 2023 yil 31 mart №64 2-bet

Birinchi bosqichda Konstitutsiya loyihasini shakllantirish uchun odamlarimiz 60 mingdan ziyod takliflar berdi. Ikkinchi bosqichda Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga qo'yilib, 150 mingdan ortiq takliflar kelib tushdi. Shu bilan birga, umumxalq muhokamasidan so'ng ham yana 10 mingta qo'shimcha takliflar kelib tushdi.²²

2023-yilning 6-mart kuni esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan xalqimiz tomonidan kelib tushgan takliflar yakunlari bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari, Oliy sud rahbariyati bilan uchrashib, maslahatlashuv o'tkazdi. Boshqacha qilib aytganda, takliflar xalqdan olindi, xalqning umumxalq muhokamasiga chiqarildi, xalq vakillari-deputat va senatorlar uchdan ikki qism ovoz bilan referendumga qo'yishga ovoz berishdi, oxirgi so'zni ham xalq aytadi, toki barchaning ovozi, u kim bo'lishidan qat'i nazar, tengligi adolatli, erkin, ochiq jarayonda namoyon bo'ladi. O'zbekiston tarixida yagona muallifi va manbai bevosita xalq bo'lgan, xalqni o'zi imzo chekadigan birinchi Konstitutsiya shu bo'ladi, u davlat rahbari tomonidan imzolanmaydi.²³

Xalqimiz takliflari asosida Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. ya'ni Asosiy Qonunimizning 65 foiz matni xalqimiz takliflari asosida yangilandi. Agar yo'nalishlar kesimida qaraydigan bo'lsak, shaxsiy huquq va erkinliklar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar borasidagi normalar qariyb 3 baravar ko'paymoqda. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari esa 3,5 baravardan ko'proqqa, oilaga bag'ishlangani esa 2 baravar ortayotganligini ko'rishimiz mumkin. 3 ta yangi bob (amaldagi Oila bobiga qo'shimcha bolalar va yoshlar, Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar bobiga qo'shimcha madaniy va ekologik huquqlar, alohida advokatura bobi) qo'shilmoqda. Konstitutsiya loyihasining 15 ta normasida davlat shart-sharoitlar yaratishi, 16 ta normasida davlat kafolatlashi, 4 ta normada davlat qayg'urishi alohida ko'rsatib o'tilayotganligining o'ziyoq davlatning maqsadi inson huquqlarini ta'minlash ekanligini ko'rsatib turibdi.²⁴

Konstitutsiya o'z taraqqiyot yo'lini tanlagan millatning ongli tanlovidir. Ma'lumot o'rnida aytish joizki, dunyoda 1995-yildan to shu kungacha 63 ta davlat, 2000-yildan shu kungacha esa 47 ta davlat Konstitutsiyasini yangilagan, o'zgartirishlar kiritgan. Konstitutsiya inson, jamiyat va davlat o'rtasida erishilgan o'ziga xos kelishuv(konsensus) ifodasi, barchamizning roziligimiz asosida o'z hayotimizni tashkil etish prinsiplari haqida kelishuv, davlat, uning siyosiy institutlari va oddiy odamlar hayoti va faoliyatida amal qiladigan ustuvor qoidalar deganidir.

Qayd etish joizki, Asosiy Qonun loyihasini takomillashtirishda barcha siyosiy kuchlar o'z partiyaviy dasturlaridan kelib chiqib, dasturiy maqsadlarini Konstitutsiyada aks ettirish uchun kurashdilar. Shu jihatdan O'zLiDeP davlatning bozor munosabatlarini rivojlantirish, qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash, halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha majburiyatlari, tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqliligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlari kabilarni taklif etdi. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirisha eng katta omil bo'lgan masala, ya'ni yerning xususiy mulk bo'lishi mumkinligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi O'zLiDeP partiyasining muhim yutug'i bo'ldi. Milliy tiklanish demokratik partiyasi muqaddimada milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligimiz, milliy tiklanishimizda davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy

²² Xalq so'zi gazetasining 2023 yil 31 mart №64 2-bet

²³ Xalq so'zi gazetasining 2023 yil 31 mart №64 2-bet

²⁴ Xalq so'zi gazetasining 2023 yil 31 mart №64 2-bet

merosiga tayanish, Asosiy prinsiplar bo'limida esa milliy rivojlanishimizda o'ta muhim kafolat bo'lmish O'zbekistonning dunyoviy davlat deb belgilanishi, davlatning majburiyatlarida nafaqat madaniyat yodgorliklarini, balki tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy merosimiz muhofazasining mustahkamlanishi, jamiyatimizning eng asosiy bo'g'inini tashkil qiluvchi oilani barpo etishda O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikoh tuzuvchilarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanishi kabilarni taklif etdi. Xalq demokratik partiyasining elektorati O'zbekiston – ijtimoiy davlat deb belgilanayotganini o'z dasturiy maqsadlarining amalga oshishi deb hisoblagan holda, ijtimoiy davlat prinsipini ro'yobga chiqarish uchun loyihada partiya platformasidan kelib chiqib, bir qator normalarni taklif qildi va loyihada ifodasini topishga erishdi. Xususan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib yashashini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish hamda kambag'allikni qisqartirish choralari ko'rishi fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etishi, har kim ishsizlikda ijtimoiy ta'minot huquqiga egaligi, har kimning uy-joyli bo'lish huquqi, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasiga olinishi, davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi shular jumlasidandir. Adolat sotsial-demokratik partiyasini mazkur yangilanayotgan Konstitutsiyada O'zbekiston – huquqiy davlat deb belgilanishi partiyaning bosh maqsadlaridan biriga erishish sifatida qabul qildi. Partiya loyihadagi "Miranda qoidasi"ni, "Xabayes korpus" institutini rivojlantirish, prokuraturaga mos ravishda advokaturaga alohida bob ajratish, xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda teng huquq va imkoniyatlarni taminlash, soliq va yig'implarning adolatli bo'lishi, parlamentda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi har yilgi milliy ma'ruzani ko'rib chiqish, Hukumatning davlat boshqaruvi organlarining ishida qonuniylik va samaradorlikni taminlash, ularning faoliyatida korrupsiya ko'rinishlariga qarshi kurashish bo'yicha choralar ko'rishga oid majburiyatlari belgilanayotganligini o'zining partiyaviy platformasidagi maqsadlar amalga oshishining ifodasi deb bildi. Mamalakatimiz tarixida birinchi marta Konstitutsiyaga ekologiyaga oid alohida bob kiritilishi, ekologiyaga doir normalar muqaddimadan tortib, inson huquqlariga taaluqli normalarda ham o'z aksini topganligi, avvalgi normalarga nisbatan ekologiyaga oid normalar qariyb besh baravarga ko'payishini, Konstitutsiyada birinchi marta Hukumatning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishini taminlash, tabiat boyliklarini, biologik xilmaxillikni asrab avaylash, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish kabi vazifalari alohida ko'rsatib o'tilishini O'zbekiston ekologik partiyasi Asosiy Qonunimiz loyihasiga partiyaning dasturiy maqsadlari kirgani sifatida e'tirof etdi. Umuman olgandan, partiyalarimiz o'z elektorati manfaatlarini himoya qilishda bir-birlariga raqib bo'lgan holda tan olib aytish joiz, millat, xalq manfaatlari haqida gap ketganida hammasi bir musht bo'lib harakat qildi.²⁵

Xulosa o'rinda aytadigan bo'lsak yangilanayotgan Konstitutsiyamiz nafaqat xalq, millat, jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiladigan Asosiy Qonun sifatida o'rin oladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda yana bir narsaga to'xtaladigan bo'lsak shiddat bilan rivojlanayotgan zamonning o'zi ham jamiyatda o'zgarishlar bo'lishini talab qiladi. Zamon bilan hamnafas bo'lmagan yurt esa taraqqiyotdan orqada qolishi tabiiy albatta. Yana shuni ta'kidlash joizki, shu zamonda, makonda yashayotgan har bir inson daxldorlik hissi bilan jamiyatda va dunyoda bo'layotgan o'zgarishlarga befarq bo'lmagan holda o'z kelajagi va yurt manfaati uchun faol ijtimoiy kuch sifatida o'zini namoyon qilsa har bir jamiyat va davlat o'zining yuksak taraqqiyot cho'qqisiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

²⁵ Xalq so'zi gazetasining 2023 yil 31 mart №64 2-3-betlar

- 1.Xalq so'zi gazetasining 2023 yil 31 mart №64
- 2.Nabiyev F.X O'zbekistonda ijtimoiy nazorat tarixi dolzarb muammolari fanidan O'UM Samarqand.2022-y
- 3.Nabiyev F.X "Ijtimoiy nazorat": darslik – Samarqand, 2020
- 4."Fuqarolik jamiyati" T. Ijtimoiy-siyosiy jurnali

TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MA'DANIY YUKSALISHNING ASOSIY OMILLARI XUSUSIDA

Holiqov Samandar Tohirjon o'g'li

talaba Guliston Davlat Universiteti

holiqov52@gmail.com

Anotatsiya. Fanning rivojlanishi har doim ham bir xil bo'lmagan. O'rta asrlarda hukmron sulolalar o'rtasidagi siyosiy kurashlar, tashqi tajovuzlar, diniy aqidaparastlikning vaqti-vaqti bilan hukmronligi fanning rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Xususan, XIII asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlari Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar tomonidan bosib olindi. Bosqin katta hududni bosib olgan Xorazm davlatiga qarshi shiddatli janglar bilan boshlandi va qariyb ikki yil davomida Movarounnahr ham bosib olindi, ko'plab shaharlar, madaniy yodgorliklar vayron bo'ldi. Olimlar o'ldirildi, boshqa davlatlar ta'qib qilindi, ilm-fan va madaniyat qattiq tanazzulga uchradi. Ammo birinchi Uyg'onish davri, IX-XII asrlardagi madaniy yuksalish O'rta Osiyoning keyingi ma'naviy taraqqiyotida o'chmas iz qoldirdi.

Kalit so'zlar: Madaniyat yutuqlari, uyg'onish, mo'g'ullar istilosi, madaniy yodgorliklar, diniy aqidaparastlik, fan va adabiyot, madaniy meros, davlat ishlari, savdo.

Abstract. The development of science has not always been the same. Political struggles between ruling dynasties, external aggression, and the occasional dominance of religious fanaticism in the Middle Ages hindered the development of science. In particular, at the beginning of the XIII century, the peoples of Central Asia were invaded by the Mongols led by Genghis Khan. The invasion began with fierce battles against the Khorezm state, which had conquered a large area, and for almost two years Movarounnahr was also occupied, many cities and cultural monuments were destroyed. Scientists were killed, other countries were persecuted, and science and culture were severely degraded. But the first Renaissance, the cultural upsurge of the ninth and twelfth centuries, left an indelible mark on the recent spiritual development of Central Asia.

Keywords: Cultural achievements, revival, Mongol invasion, cultural monuments, religious fanaticism, science and literature, cultural heritage, public affairs, trade.

Ilm-fan ravnaqi har doim ham bir xil kechmagan. Hukmron sulolar o'rtasidagi siyosiy kurashlar, tashqi tajovuzlar, o'rta asrda diniy mutassiblikning vaqti-vaqti bilan ustunligi ilm-fan rivojlanishiga to'sqinlik qilib qolgan. Jumladan, XIII asrning boshida Markaziy Osiyo xalqlari Chingizxon boshliq mo'g'ullar bosqiniga uchradi. Bu bosqin katta hududni o'ziga bo'ysundirgan Xorazmshohlar davlatiga qarshi shiddatli janglar bilan boshlandi, deyarli ikki yil davomida Movarounnahr ham bosib olindi, ko'p shaharlar, madaniy yodgorliklar vayron etildi. Olimu fozillar o'ldirildi, boshqa mamlakatlarga quvg'in bo'ldi, ilm-fan, madaniyat keskin tushkunlikka yuz tutdi. Lekin ilk Uyg'onish, IX—XII asrlardagi madaniy yuksalish Markaziy Osiyoning so'nggi ma'naviy rivojida o'chmas iz qoldirdi.

XIII asr boshida Markaziy Osiyo yana o'z mustaqilligini yo'qotdi, u mo'g'ullar tomonidan bosib olindi. Shuning uchun ilk Uyg'onish davri deyishimizga sabab bunday jarayon — madaniy yuksalish XIV—XV asrlarda mo'g'ul mustamlakachiligidan qutulib, Amir Temur va Temuriylarning mustaqil davlati barpo etilishi bilan bog'liq holda yana bir bor yuz berganini ko'ramiz.

MARKAZIY OSIYO XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA: TARIX VA TAXLIL Gulbayev Baxodir Temir o'g'li	1696
“ARIY” TERMININI PAYDO BO‘LISH TARIXI VA TERMINNING MA’NOSI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN MASALALAR Ochilov Iskandar Omongaldi o'g'li	1698
INNOVATSION IQTISODIYOT AFZALLIGI <i>Isroilov Mutallif Yakubdjanovich</i>	1700
THE PROBLEM OF THE EMERGENCE OF STATENESS IN THE TURKISH NATIONS Kudratov Salijon Sulaymonovich.....	1702
O‘ZBEK XALQI TARKIBIDAGI “TURK” ETNO GURUHI Suvonkulov Muzaffar Zairovich	1707
TO‘Y ATAMASI VA UNING TARIXI Muxlisa Sayidqulova	1710
MUSTAQILLIK YILLARIDA TEATR SAN’ATI TARAQQIYOTI Salayeva Malohat Maxmudovna.....	1713
QADIMDA SIRDARYO VILOYATIDA YASHAGAN TURKIY XALQLARNING YOZMA MANBALARDA YORITILISHI Ma’rufov Sherzod Komil o'g'li	1717
FROM THE FORMATION HISTORIY OF RUSSIAN SETTLEMENTS IN HUNGER STEPPE AND THEIR SOCIALLY ECONOMIC POSITION (THE END OF XIX – BEGINNING XX CENTURIES) Mirzaeva Nazira Djumanovna	1721
TURKISTONDA ESKI MAKTABLARNING ISLOH QILINISHI Raxmatov Ozodbek Bahodir o'g'li	1727
YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI ASOSIDA INSON HUQUQLARI HIMOYASINI TAMINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O‘RNI F.X.Nabiyev., Jomonqulov Bekzod Shokir o'g'li	1729
TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MA’DANIY YUKSALISHNING ASOSIY OMILLARI XUSUSIDA Holiqov Samandar Tohirjon o'g'li	1733
TURON ZAMINIDA TIB ILMI VA UNING TARAQQIYOT BOSQICHLARI Egamqulova Husnora Davlatbek qizi	1737
O‘ZBEKISTONDA TA’LIMNI JAHON Tajribalari ASOSIDA RIVOJLANTIRISH Baxrinov Davronbek Olimbek O'g'li.,Yusupova Laylo Umidbek qizi	1741
TURK XOQONLIGI DAVRI TARIXINING MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘RGANILISHI Abdulxay Gulchexra Urazalieva	1744
TURKISTON, MOLGUZAR TOG‘ TIZMALARI VA MIRZACHOLDA ChORVACHILIK XO‘JALIGI EVOLYUTSIYASI XUSUSIDA Alibekov Umurzoq Yo‘ldoshevich.,Umarova Aziza Umurzoq qizi	1751
QOMUSIY OLIM ABU ALI IBN SINONING MA’NAVIY MEROSIGA ChIZGILAR Nazarov Obid Raximovich.,Durdimurodova Dilnoza	1754
YANGI O‘ZBEKISTONNING ZAMONAVIY YOSHLARI KELAJAK BUNYODKORI Shodiyev Nuriddin Ro‘zikulovich.....	1757
FARG‘ONA VODIYSIDA SHAHARSOZLIK MADANIYATI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI (QADIMGI DALVARZINTEPA YODGORLIGI MISOLIDA) Rayimjonov Ismoiljon Xoshimjon o'g'li	1759
O‘RTA OSIYO QOYATOSH SURATLARIDA ARIDIZATSIYA JARAYONINING AKS ETISHI Tutchiboev B.B., Muhammadov Z., Abdullaev M.....	1763
OGNAJAFOVNING ASARIDA BUYUK KNYAZ ROMANOVNING TURKISTON TARIXIDA TUTGAN O‘RNI M.Tursunova	1765
USTRUSHONA XALQARO MADANIY ALOQALARNING MINTAQA TSIVILIZATSIYASI RIVOJIDA TUTGAN AHAMIYATI Abduraimov Dilshod	1769
ИНТЕРДИСЦИПЛИНАРНЫЙ ПОДХОД К НАСЛЕДИЮ НАРОДНЫХ ИГР ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ СТРАН Мутаева Ильсияр Шафиқовна., <i>Исмагилова Лилия Фанисовна.,Герасимова Ирина Геннадьевна</i>	1772
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA TOJIKISTON RESPUBLIKASI O‘RTASIDAGI MADANIY-GUMANITAR SOHADAGI ALOQALARNING MUSTAHKAMLANISHI Usmonov Baxtiyor Botirovich.....	1777